



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 138 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafoeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	

SHAXSLARARO MUNOSABATLAR – IJTIMOIIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Uralova Muxabbat Sanjar qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası dots.v.b. (PhD)

Annotatsiya: Maqolada shaxslararo munosabatlar ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida yoritilib, uning pedagogik yo‘nalishdagi tamoyillari, ko‘rsatmalari, nasihatları va maslahatlari, talablari hamda tavsiyalarining hozirgi kundagi dolzarbligi tahlil qilinadi. Ta‘lim-tarbiya jarayonida milliy an‘ana, madaniyat va qadriyatlarga asoslanish, pedagoglik kasbiga qiziqishni rivojlantirish, Sharqning buyuk olim va mutafakkirlarining ilmiy merosidan pedagogik kadrlar tayyorlashning zamonaviy amaliyotida foydalanishning tegishli g‘oyalari va tamoyillari, shuningdek, o‘qituvchilarning yangi kasbiy ko‘nikmalarni egallashi hamda yuqori darajadagi fikrlashni shakllantirishda ushbu merosning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: shaxslararo munosabat, mutafakkirlar merosi, jamiyat, tafakkur, o‘qitish shakllari, hayotiy ko‘nikmalar.

Abstract: The article examines interpersonal relations as a socio-pedagogical problem and analyzes their pedagogical principles, guidelines, recommendations, requirements, and advisory aspects, emphasizing their contemporary relevance. Particular attention is given to the integration of national traditions, culture, and values into the educational process, the development of interest in the teaching profession, and the use of the scientific heritage of great Eastern scholars and thinkers in modern teacher training practices. The study also highlights the importance of this heritage in helping teachers acquire new professional skills and develop a high level of thinking.

Key words: interpersonal relations, heritage of thinkers, society, thinking, forms of teaching, life skills.

Аннотация: В статье межличностные отношения рассматриваются как социально-педагогическая проблема, раскрываются их педагогические принципы, установки, наставления, рекомендации, требования и советы, а также подчёркивается их актуальность на современном этапе. Особое внимание уделяется опоре на национальные традиции, культуру и ценности в учебно-воспитательном процессе, развитию интереса к педагогической профессии, использованию научного наследия великих восточных учёных и мыслителей в современной практике подготовки педагогических кадров. Также рассматривается значение данного наследия в формировании у учителей новых профессиональных навыков и развитии высокого уровня мышления.

Ключевые слова: межличностные отношения, наследие мыслителей, общество, мышление, формы обучения, жизненные навыки.

KIRISH

Globalashuv sharoitida yoshlarning har tomonlama shakllanishiga e‘tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyotining bugungi kunda tezkor va o‘zgaruvchan tus olishi, ijtimoiy munosabatlar jarayonida axborot almashuvining tobora kuchayib borishi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyatni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ahamiyatli jihati shundaki, bugungi yoshlar o‘z-o‘zini anglash va takomillashtirish, istiqbol rejalarini belgilash hamda ularga muvofiq amaliy harakatlarni tashkil etishda tobora faollik ko‘rsatib, kichik maktab yoshidanoq kasbiy yo‘nalishni tanlash va xorijiy tillarni o‘rganishga jiddiy e‘tibor qaratmoqdalar.

Shaxsning shakllanishida shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-tarixiy tabiati shundan iboratki, har bir insonning rivojlanishida shaxslararo munosabatlar jamiyat taraqqiyotidagi mavjud vaziyat va shart-sharoitlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u turli yosh davrlarida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Shaxslararo munosabatlar ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-ona va jamiyat o‘rtasidagi aloqalar, ular orasidagi o‘zaro tushunish, hamkorlik, nizolar hamda psixologik muhitni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Mazkur muammo tarbiyaning samaradorligi, shaxsning ijtimoiy rivojlanishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Uni hal etishda Al-Farobiy kabi mutafakkirlarning g‘oyalari, zamonaviy psixologik bilimlar va innovatsion pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.



Shaxslararo munosabatlar – bu insonlarning o'zaro muloqoti, hamkorligi, bir-biriga ta'siri hamda hissiy-axloqiy bog'lanishlari majmuidir. Ular oila, maktab, tengdoshlar guruhi, jamoa va jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Mazkur munosabatlarning sifati shaxs kamoloti, ijtimoiylashuv jarayoni va jamiyat barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois shaxslararo munosabatlar ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy ta'lim jarayonlarining sifatini oshirishda shaxslararo munosabatlarning ahamiyatini yoritish jarayonida sharq mutafakkirlarining shaxslararo munosabatlar haqidagi ilmiy-pedagogik ta'limotlariga alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Sharqning buyuk mutafakkirlarining pedagogika sohasidagi g'oyalari jahon pedagogikasiga salmoqli hissa qo'shganligi hammaga ma'lum. Biroq, zamonaviy Sharqda, xususan, O'rta Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgunga qadar o'rta asr olim-mutafakkirlarining pedagogik merosiga yetarli e'tibor qaratilmagan. Faqat so'nggi yillarda pedagogik fikrning ushbu boy xazinasiga qiziqish sezilarli darajada ortdi. Mutafakkirlarning pedagogik qarashlari o'rta asr pedagogik tafakkuridagi demokratik yo'nalishni ifodalaydi. Ular inson haqidagi tasavvurlarni boyitish, yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasini shakllantirish hamda takomillashtirishga katta ta'sir ko'rsatgan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Ushbu pedagogik g'oyalar hozirgi kungacha nafaqat inson va uning tarbiyasi, balki insonparvarlik, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish hamda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar haqidagi qarashlarning rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratib kelmoqda.

Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Yusuf Xos Hojib (Balasag'uniy), Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy va boshqa buyuk Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini o'rganish jarayonida shunday xulosaga kelish mumkinki, buyuk olim-pedagoglar inson, shaxs va shaxslararo munosabatlar, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish masalalariga falsafiy yondashib, mehnat, bilim, aql, so'z san'ati hamda yuksak axloqiy fazilatlarga alohida e'tibor qaratganlar. Ular insonni har tomonlama rivojlangan, mohir va bilimli shaxs sifatida ko'rishni istaganlar. Sharq mutafakkirlarining pedagogik yo'nalishdagi tamoyillari, ko'rsatmalari, nasihatlar va maslahatlari, talablari hamda tavsiyalari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etib, amaliy jihatdan katta ehtiyoj sezilmoqda.

Shunday qilib, O'rta asr Sharqi buyuk mutafakkirlarining pedagogik qarashlari oliy pedagogika ta'limi tizimida pedagog kadrlar tayyorlash uchun muhim nazariy asos sifatida qabul qilinadi. Jumladan, Al-Beruniy ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'qituvchi–o'quvchi munosabatlariga alohida e'tibor qaratib, ularga sifatli bilim berish zarurligini ta'kidlaydi. U o'quvchilarni ilmiy omillar bilan qurollantirish, tajriba va kuzatish, takrorlash va xabar berish usullaridan foydalanish, o'qitishda do'stona munosabatlarga amal qilish, shuningdek, dars jarayonida pedagogik tamoyillar – yaqindan uzoqqa, noma'lumdan kamroq ma'lumga qarab o'qitish prinsiplariga rioya etish lozimligini qayd etadi. Ibn Sino o'z asarlarida mukammal shaxsni tarbiyalash masalasiga keng to'xtalib, shaxsning individual imkoniyatlaridan samarali foydalanishi, uning mukammallikka intilishi, hayotiy tamoyillarga amal qilishi, ya'ni nafaqat o'zi uchun, balki boshqalar uchun ham yashashi, o'z faoliyatiga ijodiy yondashishi hamda yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Alloma o'qituvchiga qo'yiladigan talablar sifatida bolaning tabiatini, uning ruhiy holatini va individualligini bilish, uni inson sifatida qabul qilish, imkoniyatlariga ishonish va ularni yuzaga chiqarish, o'quvchi bilan munosabatlarda mo'tadillik, noziklik va talabchanlikni uyg'unlashtirish, gumanizm ruhida to'laqonli shaxsni tarbiyalashga ishonch bildirishni ko'rsatadi. Uning fikricha, tarbiyaning asosiy predmeti axloqlilik bo'lib, ta'lim va tarbiyada suhbat, nasihat, misol keltirish, tahlil, sintez va umumlashtirish kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, Ibn Sino ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchini birdaniga darslik bilan band qilib qo'ymaslik, yengildan og'irga qarab o'qitish, jamoa bo'lib o'qitishga e'tibor berish, bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olish zarurligini alohida ta'kidlab o'tgan.

Sharqning buyuk mutafakkiri va ensiklopedisti Al-Farobiyning pedagogik g'oyalari tarbiya, ta'lim va shaxsni takomillashtirish orqali ijtimoiy muammolarni hal etishda faol shaxsni shakllantirishga qaratilgan qarashlarida namoyon bo'ladi. Shu bois uni o'rta asr musulmon Sharqining ilg'or pedagogik tafakkuri asoschilaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Al-Farobiy falsafani nazariy va amaliy qismlarga ajratib, nazariy qismda fizika, metafizika, bilim va mantiq masalalarini, amaliy qismda esa ijtimoiy tuzilish, davlat va axloq muammolarini yoritadi. Bu qarashlar inson xulq-atvori, tarbiyasi va ta'limi bilan uzviy bog'liq bo'lib, didaktikaning ayrim masalalari hamda ta'lim-tarbiyaning psixologik jihatlarini nazariy falsafada, inson bilimi va bilish qobiliyatlari bo'limida bayon etilgan. Al-Farobiy shaxsni har tomonlama rivojlantirish, axloqiy me'yorlarni va ijobiy fazilatlarni tarbiyalash, insonning intellektual kamolotini belgilovchi ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirishga alohida ahamiyat bergan. U o'qituvchiga fenomenal xotira, mantiqiy tafakkur, o'tkir kuzatuvchanlik, bilimga muhabbat, ravon nutq, adolat va ezgulik kabi sifatlarni zarur deb hisoblagan hamda ishontirish, isbotlash, munozara, dialektik-mantiqiy va ko'rgazmali usullarni pedagogik metodlar sifatida ko'rsatgan.



Sharqning mashhur faylasuflaridan biri Al-G'azzoliy (1056/59–1111) pedagogika nuqtai nazaridan shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Uning to'rt jildli "Diniy fanlarning tirilishi" asarida inson qobiliyatlarini rivojlantirish, bolalarni kuzatish asosida tarbiyalash masalalari yoritilgan. Al-G'azzoliy kundalik hayotda soddalikni, jismoniy mashqlar orqali chiniqishni, dasturxon atrofida o'zini tutish madaniyatini yoshlikdan singdirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, agar tarbiyachilar, ayniqsa ota-onalar, muayyan pedagogik tavsiyalarga amal qilsalar, bolaning ruhiyati to'g'ri shakllanadi. O'qituvchi esa bolani ota-onasidan qabul qilib, oilaviy tarbiya an'analari davom ettiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy yosh avlodni Vatanga muhabbat, insonga hurmat va yuksak axloq ruhida tarbiyalashga da'vat etgan. Uning asarlarida axloqiy va mehnat tarbiyasi masalalari muhim o'rin egallaydi. Sharq xalqlarining ma'naviy hayotida musulmon dinining o'ziga xos yo'nalishi bo'lgan so'fiylik alohida rol o'ynagan bo'lib, so'fiylik Parvardigorga ruhiy yaqinlashish yo'lini tanlagan inson tushunchasini anglatadi.

A. Navoiy inson sa'y-harakatlarining tadrijiy mohiyatini ta'kidlab, bu sa'y-harakatlar guruh yoki shaxs tomonidan amalga oshirilishidan qat'i nazar, doimo ma'naviy jihatdan oqlanishini ko'rsatadi. So'fiy pedagogik tafakkur taraqqiyotida Alisher Navoiyning alohida o'rni bor. U o'quv jarayonida tushuntirish, intellektual mashqlar, mulohaza, faoliyat va harakatlardan keng foydalangan. Misollar va ko'rgazmalar yordamida bir fikrni turli usullar bilan ifodalab, o'quvchi ongiga chuqur singdirishga intilgan.

Xulosa o'rniida aytish mumkinki, o'rta asrlar davrida ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'qituvchi va o'quvchi o'rta-sidagi shaxslararo munosabatlarni shakllantirish masalasi muhim pedagogik yo'nalish sifatida qaralgan. Bu jarayonda, avvalo, ruh, imon va axloq tarbiyasiga ustuvor ahamiyat berilgan. Aristokratik dunyoviy ratsional bilimlarga tayanishdan ko'ra, ruhni poklash, axloqiy kamolot, aql, iroda va imonni uyg'unlashtirgan ezgulik va donishmandlik g'oyalari urg'u berilgan. O'rta asr pedagogik an'analari shuni ko'rsatadiki, ta'lim, tarbiya va shaxslararo munosabatlarni tashkil etishda insonni olam markaziga qo'yish bilan birga, uni jamiyat va atrof-muhit bilan uyg'un holda tarbiyalash eng samarali natijalarga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixolog olimlardan L. S. Vygotskiy shaxslararo munosabatlarni shaxs rivojlanishining asosiy omili sifatida ko'rib chiqadi. Uning fikricha, bola shaxsining shakllanishi, avvalo, ijtimoiy muhit va kattalar bilan bo'ladigan munosabatlar orqali amalga oshadi. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasini" haqidagi g'oyalari shaxslararo muloqotning pedagogik ahamiyatini ochib beradi. A. N. Leontyev faoliyat nazariyasida shaxslararo munosabatlarni faoliyat jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy aloqalar sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, shaxsning jamiyatdagi o'rni va o'zini anglashi boshqalar bilan bo'lgan munosabatlar orqali namoyon bo'ladi.

Shuningdek, B. F. Lomov shaxslararo munosabatlarni muloqotning tarkibiy qismi sifatida tahlil qilib, ularni axborot almashinuvi, o'zaro ta'sir va o'zaro tushunish jarayonlari bilan uzviy bog'laydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, migratsiya hamda madaniy xilma-xillik shaxslararo munosabatlar shakliga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda, natijada muloqot madaniyatining pasayishi, nizolar va tushunmovchiliklarning ko'payishi, yolg'izlik va ijtimoiy ajralish holatlarining kuchayishi, shuningdek, tajovuzkorlik yoki befarqlik kabi salbiy ko'rinishlar yuzaga kelmoqda. Ushbu jarayonlar ayniqsa bolalar va o'smirlar tarbiyasida yaqqol namoyon bo'lib, ularning ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir etmoqda.

Ijtimoiy pedagogika nuqtayi nazaridan qaralganda, shaxslararo munosabatlar jamiyat me'yorlarini o'zlashtirishga qaratilgan ijtimoiylashuv, axloqiy qadriyatlarini shakllantiruvchi tarbiya, nizolarning oldini olishga xizmat qiluvchi profilaktika hamda moslashuvdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan rehabilitatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oila muhitidagi muammolar, e'tibor yetishmasligi va nizolar, maktab hamda tengdoshlar orasidagi ijtimoiy bosim, muloqot ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, raqamli muloqotning jonli muloqotni siqib chiqarishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar shaxslararo munosabatlarda muammolarni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shaxslararo munosabatlar jamiyat hayotining asosi bo'lib, ularning sog'lom rivoji ijtimoiy pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir. Mazkur muammoni tizimli yondashuv, tarbiyaviy ishlar hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali samarali hal etish mumkin. Shu munosabat bilan muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, empatiya, hurmat va bag'rikenglikni shakllantirish, oila-maktab-jamiyat hamkorligini mustahkamlash, psixologik va ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashni kengaytirish hamda nizolarni tinch yo'l bilan hal etish madaniyatini o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.



Shaxslararo munosabatlar muammosini hal qilish nafaqat pedagogikaning, balki butun jamiyatning vazifasi hisoblanadi, chunki sog'lom munosabatlar sog'lom jamiyatning muhim kafolatidir. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan muhim tamoyillardan biri tarixga, urf-odat va an'analarga, xususan, Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosiga murojaat qilish hamda undan samarali foydalanishdan iboratdir. Sharqning buyuk olim va mutafakkirlarining ilmiy merosidan pedagogik kadrlar tayyorlashning zamonaviy amaliyotida foydalanish bo'yicha ilgari surilgan g'oya va tamoyillar kelajakdagi o'qituvchilarning yangi kasbiy ko'nikmalarni egallashi hamda yuqori tafakkur darajasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Rayhon Beruniy. Izbrannyye proizvedeniya. I jild. Toshkent: AN UzSSR, 1957. 87–89-betlar.
2. Ibn Sino. Donishnoma. Stalinobod, 1957. 202-bet.
3. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. Toshkent: "Fan", 1983.
4. Раджабов С.Р., Хошимов К.Х., Муминходжаев К.М., Каримова С.К. Антология педагогической мысли. Педагогика, 1986. – 320 с.
5. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для высших учебных заведений. – М.: Аспект Пресс, 2001. – 384 с.
6. Психологические основы подготовки будущих учителей к межличностным отношениям // "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2022, № 3–4. – 75 bet.
7. Беруний Абу Райхон. Ўйлар, ҳикматлар, нақллар, шеърлар. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Абдусодиқ Ирисов. Тошкент: "Ёш гвардия", 1973. – 104 б.
8. Dilova N.G. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida ta'lim jarayonidagi shaxslararo munosabatlarni o'rnatishning pedagogik xususiyatlari // "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro jurnali, 2022, № 2.
9. Ширматов С.Т. Коммуникативная толерантность во взаимоотношениях студентов как условие благоприятного социально-психологического климата коллектива // Профессионально-педагогическая культура учителя и преподавателя: проблемы воспитания в условиях трансформации образования: сборник материалов VIII Международной научно-практической конференции. Белгород, 2021. – С. 241–246.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.